



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING
BUYRUG‘I

**Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari yuqori sinf o‘quvchilarining qiziqishi
va qobiliyatiga ko‘ra fanlarni chuqurlashtirib o‘qitish hamda
zamonaviy kasblarni o‘rgatish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida” 2020-yil 23-sentabrdagi O‘RQ-637-son Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2023-yil 26-maydagi PF-79-son Farmoni, “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘quvchilarini xorijiy til va zamonaviy kasblarga o‘qitish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2024-yil 2-fevraldagi PQ-53-son, “O‘quvchi-yoshlarni chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorlash tizimini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 15-noyabrdagi PQ-393-son qarorlari ijrosini ta’minlash hamda o‘quvchilarning qiziqishi va qobiliyatiga ko‘ra fanlarni chuqurlashtirib o‘qitish hamda biznes va kasb-hunarga bo‘lgan qiziqishini oshirish maqsadida **buyuraman:**

1. Quyidagilar:

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari yuqori sinf o‘quvchilarining qiziqishi va qobiliyatiga ko‘ra fanlarni chuqurlashtirib o‘qitish hamda zamonaviy kasblarni o‘rgatish bo‘yicha ta’lim jarayonlarini tashkil etish tartibi 1-ilovaga muvofiq;

ta’lim o‘zbek tilida olib boriladigan umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida tanlov fanlari joriy etiladigan sinflarning 2026-2027-o‘quv yiliga mo‘ljallangan o‘quv rejalari va tushuntirish xatlari 2.1, 2.2, 2.3, 2.4-ilovalarga muvofiq;

ta’lim o‘zbek tilida olib boriladigan umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida xorijiy tillar yo‘nalishi bo‘yicha tanlov fanlari joriy etiladigan sinflarning 2026-2027-o‘quv yiliga mo‘ljallangan o‘quv rejasi va tushuntirish xati 3-ilovaga muvofiq;

ta’lim rus tilida olib boriladigan umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida xorijiy tillar yo‘nalishi bo‘yicha tanlov fanlari joriy etiladigan sinflarning 2026-2027-o‘quv yiliga mo‘ljallangan o‘quv rejasi va tushuntirish xati 4-ilovaga muvofiq;

ta’lim qardosh (qozoq, qirg‘iz, tojik va turkman) tillarda olib boriladigan umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida xorijiy tillar yo‘nalishi bo‘yicha tanlov fanlari joriy etiladigan sinflarning 2026-2027-o‘quv yiliga mo‘ljallangan birinchi namunadagi o‘quv rejasi va tushuntirish xati 5-ilovaga muvofiq;

ta’lim qardosh (qozoq, qirg‘iz, tojik va turkman) tillarda olib boriladigan umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida xorijiy tillar yo‘nalishi bo‘yicha tanlov fanlari

joriy etiladigan sinflarning 2026-2027-o'quv yiliga mo'ljallangan ikkinchi namunadagi o'quv rejasi va tushuntirish xati 6-ilovaga muvofiq;

ta'lim o'zbek tilida olib boriladigan umumiy o'rta ta'lim muassasalarida biznes va kasb-hunarga o'qitish yo'nalishi joriy etiladigan sinflarning 2026-2027-o'quv yiliga mo'ljallangan o'quv rejasi va tushuntirish xati 7-ilovaga muvofiq;

ta'lim rus tilida olib boriladigan umumiy o'rta ta'lim muassasalarida biznes va kasb-hunarga o'qitish yo'nalishi joriy etiladigan sinflarning 2026-2027-o'quv yiliga mo'ljallangan o'quv rejasi va tushuntirish xati 8-ilovaga muvofiq;

ta'lim qardosh (qozoq, qirg'iz, tojik va turkman) tillarda olib boriladigan umumiy o'rta ta'lim muassasalarida biznes va kasb-hunarga o'qitish yo'nalishi joriy etiladigan sinflarning 2026-2027-o'quv yiliga mo'ljallangan birinchi namunadagi o'quv rejasi va tushuntirish xati 9-ilovaga muvofiq;

ta'lim qardosh (qozoq, qirg'iz, tojik va turkman) tillarda olib boriladigan umumiy o'rta ta'lim muassasalarida biznes va kasb-hunarga o'qitish yo'nalishi joriy etiladigan sinflarning 2026-2027-o'quv yiliga mo'ljallangan ikkinchi namunadagi o'quv rejasi va tushuntirish xati 10-ilovaga muvofiq;

ta'lim o'zbek tilida olib boriladigan umumiy o'rta ta'lim muassasalarida biznes va kasb-hunarga o'qitish hamda xorijiy tillar (ikkinchi xorijiy til) yo'nalishining tanlov fanlari joriy etiladigan sinflarning 2026-2027-o'quv yiliga mo'ljallangan o'quv rejasi va tushuntirish xati 11-ilovaga muvofiq;

ta'lim rus tilida olib boriladigan umumiy o'rta ta'lim muassasalarida biznes va kasb-hunarga o'qitish hamda xorijiy tillar (ikkinchi xorijiy til) yo'nalishining tanlov fanlari joriy etiladigan sinflarning 2026-2027-o'quv yiliga mo'ljallangan o'quv rejasi va tushuntirish xati 12-ilovaga muvofiq;

ta'lim qardosh (qozoq, qirg'iz, tojik va turkman) tillarda olib boriladigan umumiy o'rta ta'lim muassasalarida biznes va kasb-hunarga o'qitish hamda xorijiy tillar (ikkinchi xorijiy til) yo'nalishining tanlov fanlari joriy etiladigan sinflarning 2026-2027-o'quv yiliga mo'ljallangan birinchi namunadagi o'quv rejasi va tushuntirish xati 13-ilovaga muvofiq;

ta'lim qardosh (qozoq, qirg'iz, tojik va turkman) tillarda olib boriladigan umumiy o'rta ta'lim muassasalarida biznes va kasb-hunarga o'qitish hamda xorijiy tillar (ikkinchi xorijiy til) yo'nalishining tanlov fanlari joriy etiladigan sinflarning 2026-2027-o'quv yiliga mo'ljallangan ikkinchi namunadagi o'quv rejasi va tushuntirish xati 14-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. 2026-2027-o'quv yilida umumiy o'rta ta'lim muassasalarida yuqori sinf o'quvchilarini biznes va kasb-hunarga o'qitish hamda xorijiy tillar (ikkinchi xorijiy til) yo'nalishlari birlashtirilgan holda amaliyotga joriy etish ishlari bosqichma-bosqich davom ettirilishi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi (A.Ayapov) ikki hafta muddatda hududdagi umumiy o'rta ta'lim muassasalarining yuqori sinflari uchun 2026-2027-o'quv yiliga mo'ljallangan tanlov fanlari hamda biznes va kasb-hunar yo'nalishlari o'quv rejalarini mazkur buyruq bilan yo'nalishlar kesimida tasdiqlangan o'quv rejalariga muvofiq ishlab chiqsin hamda tasdiqlasin.

4. O'quv jarayonini metodik ta'minlash va darsliklar boshqarmasi (Q.Almardanov), Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish boshqarmasi (H.G'aniyev), O'quvchilarni kasbga yo'naltirish bo'limi (D.Islamova), O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va pedagogik-psixologik respublika tashxis markazi (L.Gaynutdinova), Respublika ta'lim markazi (D.Norboyeva) joriy yil 1-avgustga qadar:

tanlov fanlari hamda biznes va kasb-hunar yo'nalishlari bo'yicha taqvim-mavzu rejalarini hamda qo'shimcha foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxatini ishlab chiqsin hamda yo'nalishlarga muvofiq umumiy o'rta ta'lim muassasalariga yetkazsin;

tanlov fanlari hamda biznes va kasb-hunar yo'nalishlari joriy etiladigan umumiy o'rta ta'lim muassasalariga uzluksiz metodik xizmat ko'rsatish hamda tegishli tavsiyalarni berib borish ishlarini amalga oshirsin.

5. Raqamlashtirish va sun'iy intellektni rivojlantirish boshqarmasi (S.Abdukarimov) 2026-yilning 30-avgust kuniga qadar umumiy o'rta ta'lim muassasalari uchun 2026-2027-o'quv yiliga mo'ljallangan mazkur buyruqning 2-14-ilovalarga muvofiq o'quv rejalarini maktab ta'limi tizimini boshqarishning yagona dasturiy majmuasi axborot tizimi - erp.maktab.uzga kiritish jarayonlarini amalga oshirsin.

6. Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish boshqarmasi (H.G'aniyev), O'quvchilarni kasbga yo'naltirish bo'limi (D.Islamova) joriy yilning 15-avgustiga qadar tegishliligiga ko'ra umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'quvchilarga ikkinchi xorijiy tilni o'qitish ishlarini tashkil etish to'g'risidagi, shuningdek, o'quvchilarga kasb-hunarga o'qitish ishlarini tashkil etish to'g'risidagi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining buyruqlarini ishlab chiqib, tasdiqlash uchun kiritsin.

7. Qoraqalpog'iston Respublikasi maktabgacha va maktab ta'limi vaziri, viloyatlar hamda Toshkent shahar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari boshliqlariga:

2026-2027-o'quv yiliga qadar umumiy o'rta ta'lim muassasalarining yuqori sinf o'quvchilari o'rtasida tanlov fanlari hamda biznes va kasb-hunar yo'nalishlaridan birini tanlash bo'yicha so'rovnomalar o'tkazish;

so'rovnoma natijalari hamda umumiy o'rta ta'lim muassasalarining imkoniyatlarini inobatga olib, yo'nalishlar bo'yicha umumiy o'rta ta'lim muassasalari ro'yxatini shakllantirish;

shakllantirilgan umumiy o'rta ta'lim muassasalari ro'yxatini **1-oktabr kuniga qadar** vazirlikka taqdim etish;

tanlov fanlari hamda biznes va kasb-hunar yo'nalishlari joriy etiladigan umumiy o'rta ta'lim muassasalarining ta'lim jarayonlarini samarali tashkil etish, doimiy nazoratga olish va muvofiqlashtirib borish;

har chorak yakunida jarayonlar bo'yicha xulosalarni vazirlikka taqdim etib borish vazifalari yuklatilsin.

8. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida tanlov fanlari hamda biznes va kasb-hunar yo'nalishlari o'quv rejalarini bajarish va natijalarini tahlil etib borish hamda o'qituvchilar o'rtasida dars soatlarini belgilangan tartibga muvofiq

taqsimlash ishlariga hududiy maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari boshliqlari hamda umumiy o'rta ta'lim muassasalari direktorlari shaxsan mas'ul etib belgilansin.

9. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining 2025-yil 15-maydagi "Umumiy o'rta ta'lim muassasalari yuqori sinf o'quvchilarining qiziqishi va qobiliyatiga ko'ra fanlarni chuqurlashtirib o'qitish hamda zamonaviy kasblarni o'rgatish to'g'risida"gi 152-son buyrug'i 2026-yil 31-avgust kunidan o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

10. Devonxona bo'limi (S.Xashimov) ushbu buyruqni bir kunlik muddatda vazirlikning tegishli tarkibiy bo'linmalari, O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va pedagogik-psixologik respublika tashxis markazi, Respublika ta'lim markazi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalariga yetkazilishini ta'minlasin.

11. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazirning birinchi o'rinbosari Sh. Karimov zimmasiga yuklatilsin.

Vazir



E. Karimova

Toshkent sh.,
2026-yil "25"-may,
183-son

**Umumiy o'rta ta'lim muassasalari yuqori sinf o'quvchilarining qiziqishi
va qobiliyatiga ko'ra fanlarni chuqurlashtirib o'qitish hamda zamonaviy
kasblarni o'rgatish bo'yicha ta'lim jarayonlarini tashkil etish**

TARTIBI

I. Umumiy qoidalar

1. Mazkur tartib umumiy o'rta ta'lim muassasalari yuqori sinf o'quvchilarining qiziqishi va qobiliyatiga ko'ra fanlarni chuqurlashtirib o'qitish, zamonaviy kasblarga yo'naltirish, o'zlari ustida mustaqil ishlash hamda qo'shimcha bilim olishlari uchun keng imkoniyatlar yaratish va bu borada ta'lim jarayonlarini tashkil etish vazifalarini belgilaydi.

2. Tanlov fanlari hamda biznes va kasb-hunar yo'nalishlari ayrim fanlar chuqur o'rganiladigan davlat umumta'lim muassasalarining ixtisoslashtirilgan hamda variativ rejalar asosida o'qitiladigan sinflarga tatbiq qilinmaydi;

**II. Tanlov fanlari hamda biznes va kasb-hunar
yo'nalishlarining maqsadi**

3. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida tanlov fanlari hamda biznes va kasb-hunar yo'nalishlarini joriy etishning asosiy maqsadi quyidagilardan iborat:

o'quvchilarning individual xohish-istaklari, qobiliyatlarini inobatga olgan holda o'quv jarayonini tashkil etish, bunda:

o'quvchilarni oliy o'quv yurtlariga yo'naltirish uchun keng imkoniyatlar yaratish;

o'quvchilarga kasb-hunar o'rganishi uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratish;

maktab davridanoq o'quvchilarga kamida 2 ta xorijiy til va bitta kasb-hunar o'rgatish.

**III. Tanlov fanlari hamda biznes va kasb-hunar yo'nalishlari
faoliyatini yo'lga qo'yish**

4. Tanlov fanlari hamda biznes va kasb-hunar yo'nalishlari umumiy o'rta ta'lim muassasalarining 10-sinflaridan boshlab amalga oshiriladi, 2025-2026-o'quv yilida tanlov fanlari hamda kasb-hunar yo'nalishlari joriy etilgan sinflar 11-sinf sifatida davom ettiradi hamda 2026-2027-o'quv yilida ushbu sinflarning yo'nalishlarini o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi.

Bunda, har bir yo'nalish bo'yicha tashkil etilgan sinflardagi o'quvchilar soni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-martdagi 140-son

qarori bilan tasdiqlangan Umumiy o'rta ta'lim to'g'risidagi nizomga muvofiq bo'lishi zarur, bitta yo'nalish tashkil etilgan sinfda boshqa yo'nalishlar joriy etilmaydi.

5. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida tanlov fanlari hamda biznes va kasb-hunar yo'nalishlarini tashkil etishda o'quvchilarning qiziqishi va qobiliyati hamda yuqori malakali, tajribali o'qituvchilarning mavjudligi inobatga olinadi.

Agar tegishli yo'nalish bo'yicha so'rovnoma natijalariga ko'ra o'quvchilar tomonidan birorta ham yo'nalishga qiziqish bildirilmasa, yo'nalishlar bo'yicha sinflar tashkil etilmaydi va 10-sinf o'quvchilari umumiy o'rta ta'lim muassasalari uchun 2026-2027-o'quv yiliga mo'ljallangan tayanch o'quv reja asosida ta'lim oladi.

6. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida tanlov fanlari hamda biznes va kasb-hunar yo'nalishlari joriy etiladigan sinflarda ta'lim jarayoni quyidagicha amalga oshiriladi:

a) tanlov fanlari quyidagi yo'nalishlar bo'yicha tashkil etiladi:

matematika - fizika;

kimyo - biologiya;

ona tili va adabiyot - chet tili;

matematika — chet tili.

Tanlov fani joriy etiladigan sinfda yo'nalishlar bo'yicha ta'lim jarayoni mazkur buyruqning 2.1, 2.2, 2.3, 2.4-ilovasi bilan tasdiqlangan o'quv rejalar asosida tashkil etiladi.

b) xorijiy tillar yo'nalishi bo'yicha tanlov fanlari joriy etiladigan sinflarda quyidagi chet tillaridan biri ikkinchi xorijiy til sifatida tanlanadi:

ingliz tili;

koreys tili;

nemis tili;

fransuz tili;

xitoy tili;

yapon tili.

Asosiy til sifatida o'qitiladigan xorijiy til ikkinchi xorijiy til sifatida ham o'qitilishiga yo'l qo'yilmaydi. Ikkinchi xorijiy tili sifatida faqat bitta til tanlanadi.

Xorijiy tillar yo'nalishi bo'yicha tanlov fanlari joriy etiladigan sinfda ta'lim jarayoni mazkur buyruqning 3-, 4-, 5- va 6-ilovalari bilan tasdiqlangan o'quv rejalar asosida tashkil etiladi.

d) biznes va kasb-hunar yo'nalishi joriy etiladigan sinflarda kasbiy ta'lim hamda qo'shimcha ravishda iqtisodiyot va biznes fani tanlanadi va bitta yo'nalish tashkil etiladi:

biznes va kasb-hunar yo'nalishi joriy etiladigan sinflarni tashkil etishda umumiy o'rta ta'lim muassasasi o'zining imkoniyatlari, hududiy sharoiti

va ota-onalarning fikrlaridan kelib chiqib, kerakli yoʻnalishlar boʻyicha oʻquvchilar oʻrtasida soʻrovnoma oʻtkazadi.

Oʻquvchilar oʻrtasida oʻtkazilgan soʻrovnoma natijasiga koʻra, bir yoki ikki kasb yoʻnalishi asosida bitta sinf tashkil etilishi mumkin. Agar ikkita yoʻnalish asosida bitta sinf tashkil etilsa, ushbu sinfda oʻquvchilar soni kamida 25 nafar boʻlishi lozim.

Biznes va kasb-hunar yoʻnalishi joriy etiladigan sinflarda kasbiy taʼlim fani ikki guruhga boʻlib oʻqitiladi (iqtisodiyot va biznes fani bundan mustasno).

Biznes va kasb-hunar yoʻnalishi joriy etiladigan umumiy oʻrta taʼlim muassasalari roʻyxati Vazirlik tomonidan tasdiqlanadi.

Biznes va kasb-hunar yoʻnalishi joriy etiladigan sinfda taʼlim jarayoni mazkur buyruqning 7-, 8-, 9- va 10-ilovalari bilan tasdiqlangan oʻquv rejalar asosida tashkil etiladi.

Iqtisodiyot va biznes fani umumiy oʻrta, oʻrta maxsus, professional va oliy taʼlim muassasalarida iqtisodiyot yoʻnalishi boʻyicha joriy etilgan fanlardan dars berish huquqiga ega boʻlgan pedagog xodimlar yoki umumiy oʻrta taʼlim muassasalarida “Iqtisodiy bilim asoslari” fanidan dars berish boʻyicha qayta tayyorlashdan oʻtgan pedagog xodimlar tomonidan oʻqitiladi hamda amaldagi malaka toifasiga mos ravishda haq toʻlanadi.

e) biznes va kasb-hunarga oʻqitish va xorijiy tillar (ikkinchi xorijiy til) yoʻnalishi joriy etiladigan sinflarda kasbiy taʼlim, iqtisodiyot va biznes fani hamda xorijiy tillardan biri ikkinchi xorijiy til sifatida tanlanadi.

Biznes va kasb-hunarga oʻqitish va xorijiy tillar (ikkinchi xorijiy til) yoʻnalishi boʻyicha tanlov fanlari joriy etiladigan sinfda taʼlim jarayoni mazkur buyruqning 11-, 12-, 13- va 14-ilovalari bilan tasdiqlangan oʻquv rejalar asosida tashkil etiladi.

7. Tanlov fanlari hamda biznes va kasb-hunar yoʻnalishlari joriy etiladigan sinf yoʻnalishi 10-sinf oʻquvchilari oʻrtasida soʻrovnoma oʻtkazish orqali aniqlanadi. Yoʻnalishni aniqlash uchun oʻquvchilar oʻrtasida may-iyul oyida soʻrovnoma oʻtkazilayotganda ota-onalar ham farzandlari bilan birga ishtirok etishi mumkin. Bunda, bir nafar oʻquvchi faqat bitta yoʻnalishni tanlaydi.

8. Oʻquvchilar oʻrtasida soʻrovnoma oʻtkazish va natijasini umumlashtirish uchun umumiy oʻrta taʼlim muassasasida tanlov komissiyasi tuziladi.

9. Tanlov komissiyasi tarkibiga direktorining oʻquv ishlari boʻyicha oʻrinbosari, psixolog, amaldagi sinf rahbari, fan metod birlashma rahbari va Kuzatuv kengashi raisi (yoki Kengash aʼzolaridan biri) kiritiladi.

Bunda, tanlov komissiyasi aʼzolari tarkibiga oʻquvchilarning ota-onalari va tegishli yoʻnalishdagi fan oʻqituvchilari kiritilishiga yoʻl qoʻyilmaydi (Kuzatuv kengashi raisi yoki aʼzolari va fan metod birlashmalari rahbarlari bundan mustasno).

10. Soʻrovnoma natijasi tahlil qilinib, tayyorlangan maʼlumot 5-avgustga qadar maktab direktoriga taqdim etiladi.

11. So‘rovnoma natijasida tegishli yo‘nalishlar joriy etiladigan sinfda o‘qishni xohlagan o‘quvchilar soni 35 nafardan oshib ketsa, o‘quvchilar uchun umumiy o‘rta ta‘lim muassasasi tomonidan tashkil etiladigan tegishli fan bo‘yicha sinov (*nazorat ishi*) natijalari asosida qabul qilinadi.

Agar maktabda sinov (*nazorat ishi*) tashkil etiladigan bo‘lsa, direktorning o‘quv ishlari bo‘yicha o‘rinbosari rahbarligida ishchi guruh (3-5 nafardan iborat) tuziladi. Ishchi guruh tomonidan tanlangan yo‘nalishdagi fanlardan nazorat materiallari tayyorlanib, ularning maxfiyligini ta‘minlagan holda joriy yilning 15-avgustiga qadar o‘quvchilardan nazorat ishlari olinadi.

Sinovdan o‘ta olmagan o‘quvchi an‘anaviy sinfda o‘qishini davom ettiradi va umumiy o‘rta ta‘lim muassasalari uchun 2026-2027-o‘quv yiliga mo‘ljallangan tayanch o‘quv reja asosida ta‘lim oladi.

Sinov natijalaridan norozi bo‘lgan o‘quvchilar uch ish kuni ichida Apellyatsiya komissiyasiga murojaat qilishlari mumkin.

Apellyatsiya komissiyasi tarkibiga maktab direktori, tajribali fan o‘qituvchilari, psixologlar kiritiladi. Apellyatsiya komissiyasi faoliyatini maktab direktori amalga oshiradi.

12. Ota-onalar farzandlarini tanlov fanlari yoki biznes va kasb-hunar yo‘nalishlari sinfga qabul qilishi to‘g‘risida 25-avgust kuniga qadar direktor nomiga ariza yozadi.

O‘quv yili davomida tegishli yo‘nalish bo‘yicha tashkil etilgan sinfdan an‘anaviy sinfga yoki an‘anaviy sinfdan tegishli yo‘nalish bo‘yicha tashkil etilgan sinfga o‘tishga ruxsat berilmaydi (*oilaviy yoki boshqa sabablarga ko‘ra maktabni o‘zgartirish bundan mustasno*).

13. Tanlov fanlari hamda biznes va kasb-hunar yo‘nalishlarida joriy etiladigan umumiy o‘rta ta‘lim muassasalaridagi 10-11-sinflar Umumta‘lim muassasalarida sinflarni komplektlash hamda tarifikatsiya ro‘yxatlarini shakllantirish tartibi to‘g‘risida nizomga (*O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2020-yil 30-iyunda ro‘yxatdan o‘tkazilgan, ro‘yxat raqami 3271*) muvofiq komplektlanadi. Bunda, sinflar soni 2026-2027-o‘quv yili uchun mavjud bo‘lgan umumiy 10-11-sinflar doirasida amalga oshiriladi.

14. Maktab direktorining o‘quv ishlari bo‘yicha o‘rinbosari va fan metod birlashma rahbarlari tomonidan tanlov fanlari hamda biznes va kasb-hunar yo‘nalishlari joriy etiladigan sinf yo‘nalishi, o‘quvchilar ro‘yxati, sinf rahbari va mazkur fanlardan dars beruvchi o‘qituvchilar to‘g‘risida ma‘lumot tayyorlanadi.

15. Ushbu ma‘lumot maktab pedagogika kengashida muhokama qilinib, kengashda tegishli yo‘nalish joriy etiladigan sinfga mo‘ljallangan o‘quv reja, fan o‘qituvchilari, dars taqsimoti, sinf rahbarini belgilash, o‘quvchilar ro‘yxatini tasdiqlash bo‘yicha tegishli qaror qabul qilinadi.

IV. Tanlov fanlari hamda biznes va kasb-hunar yo‘nalishlarida fanlarni ikki guruhga bo‘lib o‘qitish

16. Tanlov fanlari hamda biznes va kasb-hunar yo‘nalishlari joriy etiladigan sinfda malakali o‘qituvchilar yetarli bo‘lib, o‘quvchilar soni 25 nafar va undan

ziyod bo'lganda, chet tili, ta'lim tili o'zbek tili bo'lmagan umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'zbek tili, ta'lim tili rus tili bo'lmagan umumiy o'rta ta'lim muassasalarida rus tili, informatika va axborot texnologiyalari, chaqiriqqa qadar boshlang'ich tayyorgarlik, jismoniy tarbiya va ikkinchi xorijiy til sifatida o'qitiladigan fanlar ikki guruhga bo'lib o'qitilishiga ruxsat etiladi.

V. Yakuniy qoidalar

17. Tanlov fanlarni o'qitishda darsliklardan tashqari, Respublika ta'lim markazi tomonidan tavsiya etilgan qo'shimcha adabiyot va manbalardan foydalanish mumkin.

18. Tanlov fanlari hamda biznes va kasb-hunar yo'nalishlari joriy etilgan 11-sinf bitiruvchilarining umumiy o'rta ta'lim to'g'risidagi shahodatnomasiga dars soatlari qisqarishi evaziga o'qitilmagan fanlarning yakuniy baholari 9-sinf tayanch o'rta ta'lim to'g'risidagi shahodatnomasida mazkur fanlardan olgan baholarini ko'chirish orqali qo'yiladi.

19. Tanlov fanlari hamda biznes va kasb-hunar yo'nalishlari joriy etiladigan sinfda o'tilmay qolgan fanlar doirasida shakllantirilishi lozim bo'lgan ko'nikmalar turdosh fanlar hamda fan to'garaklarida rivojlantiriladi.

20. Tanlov fanlari hamda biznes va kasb-hunar yo'nalishlarida o'qitiladigan sinflarni tashkil etish yoki uni tugatish maktabning pedagogika kengashi qarori asosida amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining
2026-yil “25”-maydagi
183-son buyrug‘iga
2.1-ILOVA

Ta’lim o‘zbek tilida olib boriladigan umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida tanlov fanlari joriy etiladigan sinflarning 2026-2027-o‘quv yiliga mo‘ljallangan
MATEMATIKA — FIZIKA yo‘nalishi o‘quv rejasi

T/r	Fan yo‘nalishlari va nomlari	Sinflar kesimida		Haftalik umumiy soat
		10	11	
I.	Filologiya fanlari	8	8	16
1	Ona tili	2	2	4
2	Adabiyot	2	2	4
3	Rus tili	2	2	4
4	Chet tili	2	2	4
II.	Ijtimoiy fanlar	4	4	8
5	O‘zbekiston tarixi	1	1	2
6	Jahon tarixi	1	1	2
7	Davlat va huquq asoslari	1	1	2
8	Tarbiya	1	1	2
III.	Tabiiy va iqtisodiy fanlar	2	2	4
9	Astronomiya		1	1
10	Geografiya	2		2
11	Tadbirkorlik asoslari		1	1
IV.	Amaliy fanlar	2	2	4
15	Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik	2	2	4
Jami soat		16	16	32
Tanlov fanlar				
1	Algebra	6	6	12
2	Geometriya	4	4	8
3	Fizika	5	5	10
Jami soat		15	15	30
UMUMIY SOAT		31	31	62

**Ta'lim o'zbek tilida olib boriladigan umumiy o'rta ta'lim muassasalarida tanlov fanlari
joriy etiladigan sinflarning 2026-2027-o'quv yiliga mo'ljallangan
MATEMATIKA — FIZIKA
yo'nalishi o'quv rejasiga tushuntirish xati**

1. Matematika-fizika yo'nalishi 10-11-sinflarga mo'ljallangan bo'lib, ushbu o'quv reja 2 qism (majburiy fanlar va tanlov fanlari)dan iborat.

2. Tanlov fanlari uchun ajratilgan haftalik o'quv soatlar quyidagi fanlar soatidan olib berildi:

10-sinfdagi tanlov fanlari uchun 10-sinf “Informatika va axborot texnologiyalari”, “Kimyo”, “Biologiya”, “Jismoniy tarbiya” fanlaridan **2 soatdan** olinib, tanlov fanlariga, ya'ni, “Algebra” faniga **3 soat**, “Geometriya” faniga **2 soat**, “Fizika” faniga **3 soatdan** jami **8 soat** qo'shib berildi.

11-sinfdagi tanlov fanlari uchun 11-sinf “Informatika va axborot texnologiyalari”, “Kimyo”, “Biologiya”, “Jismoniy tarbiya” fanlaridan **2 soatdan olinib**, tanlov fanlariga, ya'ni, “Algebra” faniga **3 soat**, “Geometriya” faniga **2 soat**, “Fizika” faniga **3 soat**, jami **8 soat** qo'shib berildi.

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining
2026-yil “25”-maydagi
183-son buyrug‘iga
2.2-ILOVA

**Ta’lim o‘zbek tili olib boriladigan umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida tanlov fanlari
joriy etiladigan sinflarning 2026-2027-o‘quv yiliga mo‘ljallangan
KIMYO — BIOLOGIYA yo‘nalishi o‘quv rejasi**

T/r	Fan yo‘nalishlari va nomlari	Sinflar kesimida		Haftalik umumiy soat
		10	11	
I.	Filologiya fanlari	8	8	16
1	Ona tili	2	2	4
2	Adabiyot	2	2	4
3	Rus tili	2	2	4
4	Chet tili	2	2	4
II.	Ijtimoiy fanlar	4	4	8
5	O‘zbekiston tarixi	1	1	2
6	Jahon tarixi	1	1	2
7	Davlat va huquq asoslari	1	1	2
8	Tarbiya	1	1	2
III.	Aniq fanlar	5	5	10
9	Algebra	3	3	6
10	Geometriya	2	2	4
IV.	Tabiiy va iqtisodiy fanlar	2	2	4
11	Fizika	1		1
12	Astronomiya		1	1
13	Geografiya	1		1
14	Tadbirkorlik asoslari		1	1
V.	Amaliy fanlar	2	2	4
15	Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik	2	2	4
Jami soat		21	21	42
Tanlov fanlar				
1	Kimyo	5	5	10
2	Biologiya	5	5	10
Jami soat		10	10	20
UMUMIY SOAT		31	31	62

**Ta'lim o'zbek tilida olib boriladigan umumiy o'rta ta'lim muassasalarida tanlov fanlari
joriy etiladigan sinflarning 2026-2027-o'quv yiliga mo'ljallangan
KIMYO — BIOLOGIYA yo'nalishi o'quv rejasiga
tushuntirish xati**

1. Kimyo-biologiya yo'nalishi 10-11-sinflarga mo'ljallangan bo'lib, ushbu o'quv reja 2 qism (majburiy fanlar va tanlov fanlari)dan iborat.

2. Tanlov fanlari uchun ajratilgan haftalik o'quv soatlar quyidagi fanlar soatidan olib berildi:

10-sinfdagi tanlov fanlari uchun 10-sinf "Informatika va axborot texnologiyalari", "Jismoniy tarbiya" fanlaridan **2 soatdan**, "Fizika" va "Geografiya" fanlaridan **1 soatdan** olinib, tanlov fanlariga, ya'ni "Kimyo" faniga **3 soat**, "Biologiya" faniga **3 soatdan** jami **6 soat qo'shib** berildi.

11-sinfdagi tanlov fanlari uchun 11-sinf "Informatika va axborot texnologiyalari", "Jismoniy tarbiya", "Fizika" fanlaridan **2 soatdan** olinib, tanlov fanlariga, ya'ni "Kimyo" faniga **3 soat**, "Biologiya" faniga **3 soat**, jami **6 soat qo'shib** berildi.

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining
2026-yil “25”-maydagi
183-son buyrug‘iga
2.3-ILOVA

**Ta’lim o‘zbek tilida olib boriladigan umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida tanlov fanlari
joriy etiladigan sinflarning 2026-2027-o‘quv yiliga mo‘ljallangan
ONA TILI VA ADABIYOT — CHET TILI yo‘nalishi o‘quv rejasi**

T/r	Fan yo‘nalishlari va nomlari	Sinflar kesimida		Haftalik umumiy soat
		10	11	
I.	Filologiya fanlari	2	2	4
1	Rus tili	2	2	4
II.	Ijtimoiy fanlar	4	4	8
5	O‘zbekiston tarixi	1	1	2
6	Jahon tarixi	1	1	2
7	Davlat va huquq asoslari	1	1	2
8	Tarbiya	1	1	2
III.	Aniq fanlar	5	5	10
9	Algebra	3	3	6
10	Geometriya	2	2	4
IV.	Tabiiy va iqtisodiy fanlar	3	3	6
11	Fizika	1	1,5	2,5
12	Astronomiya		0,5	0,5
13	Geografiya	2		2
14	Tadbirkorlik asoslari		1	1
V.	Amaliy fanlar	2	2	4
15	Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik	2	2	4
Jami soat		16	16	32
Tanlov fanlar				
1	Ona tili	4	4	8
2	Adabiyot	5	5	10
3	Chet tili	6	6	12
Jami soat		15	15	30
UMUMIY SOAT		31	31	62

**Ta'lim o'zbek tilida olib boriladigan umumiy o'rta ta'lim muassasalarida tanlov fanlari
joriy etiladigan sinflarning 2026-2027-o'quv yiliga mo'ljallangan
ONA TILI VA ADABIYOT — CHET TILI
yo'nalishi o'quv rejasiga tushuntirish xati**

1. Ona til va adabiyot — chet tili yo'nalishi 10-11-sinflarga mo'ljallangan bo'lib, ushbu o'quv reja 2 qism (majburiy fanlar va tanlov fanlari)dan iborat.

2. Tanlov fanlari uchun ajratilgan haftalik o'quv soatlar quyidagi fanlar soatidan olib berildi:

10-sinfdagi tanlov fanlari uchun 10-sinf, “Kimyo”, “Biologiya fanlaridan **2 soatdan** va “Fizika” fanidan **1 soat** jami **5 soat** olinib, tanlov fanlariga, ya'ni “Ona tili” **2 soat**, “Adabiyot” faniga **3 soat** hamda ikki guruhga bo'linib o'qitiladigan tanlov fan soatlari, ikki guruhga bo'lib o'qitiladigan fanlar soatidan, ya'ni “Informatika va axborot texnologiyalari”, “Jismoniy tarbiya” fanlaridan **2 soatdan** olinib, “Chet tili” faniga **4 soat** qo'shib berildi.

11-sinfda “Kimyo”, “Biologiya fanlaridan **2 soatdan** va “Fizika” va “Astronomiya” fanlaridan **0,5 soatdan** jami **5 soat** olinib, tanlov fanlariga, ya'ni “Ona tili” faniga **2 soat**, “Adabiyot” faniga **3 soat** hamda ikki guruhga bo'linib o'qitiladigan tanlov fan soatlari, ikki guruhga bo'lib o'qitiladigan fanlar soatidan, ya'ni “Informatika va axborot texnologiyalari”, “Jismoniy tarbiya” fanlaridan **2 soatdan** olinib, “Chet tili” faniga **4 soat** qo'shib berildi.

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining
2026-yil “25”-maydagi
183-son buyrug‘iga
2.4-ILOVA

**Ta’lim o‘zbek tilida olib boriladigan umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida tanlov fanlari
joriy etiladigan sinflarning 2026-2027-o‘quv yiliga mo‘ljallangan
MATEMATIKA—ChET TILI yo‘nalishi o‘quv rejasi**

T/r	Fan yo‘nalishlari va nomlari	Sinflar kesimida		Haftalik umumiy soat
		10	11	
I.	Filologiya fanlari	6	6	12
1	Ona tili	2	2	4
2	Adabiyot	2	2	4
3	Rus tili	2	2	4
II.	Ijtimoiy fanlar	4	4	8
5	O‘zbekiston tarixi	1	1	2
6	Jahon tarixi	1	1	2
7	Davlat va huquq asoslari	1	1	2
8	Tarbiya	1	1	2
III.	Tabiiy va iqtisodiy fanlar	3	3	6
11	Fizika	1	1,5	2,5
12	Astronomiya		0,5	0,5
13	Geografiya	2		2
14	Tadbirkorlik asoslari		1	1
V.	Amaliy fanlar	2	2	4
15	Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik	2	2	4
Jami soat		15	15	30
Tanlov fanlar				
1	Algebra	6	6	12
2	Geometriya	4	4	8
3	Chet tili	6	6	12
Jami soat		16	16	32
UMUMIY SOAT		31	31	62

**Ta'lim o'zbek tilida olib boriladigan umumiy o'rta ta'lim muassasalarida tanlov fanlari
joriy etiladigan sinflarning 2026-2027-o'quv yiliga mo'ljallangan
MATEMATIKA—ChET TILI
yo'nalishi o'quv rejasiga tushuntirish xati**

1. Matematika — chet tili yo'nalishi 10-11-sinflarga mo'ljallangan bo'lib, ushbu o'quv reja 2 qism (majburiy fanlar va tanlov fanlari)dan iborat.

2. Tanlov fanlari uchun ajratilgan haftalik o'quv soatlar quyidagi fanlar soatidan olib berildi:

10-sinfdagi tanlov fanlari uchun 10-sinf, “Kimyo”, “Biologiya fanlaridan **2 soatdan** va “Fizika” fanidan **1 soat** jami **5 soat** olinib tanlov fanlariga, ya'ni **“Algebra”** faniga **3 soat**, **“Geometriya”** faniga **2 soat** hamda ikki guruhga bo'linib o'qitiladigan tanlov fanlari, ikki guruhga bo'lib o'qitiladigan fanlar soatidan, ya'ni “Informatika va axborot texnologiyalari”, “Jismoniy tarbiya” fanlaridan **2 soatdan** jami **4 soat** olinib, “Chet tili” faniga **4 soat** qo'shib berildi.

11-sinfdagi tanlov fanlari uchun 11-sinf, “Kimyo”, “Biologiya fanlaridan **2 soatdan** va “Fizika” va “Astronomiya” fanlaridan **0,5 soatdan** jami **5 soat** olinib tanlov fanlariga, ya'ni **“Algebra”** faniga **3-soat**, “Geometriya” faniga **2 soat** hamda ikki guruhga bo'linib o'qitiladigan tanlov fan soatlari, ikki guruhga bo'lib o'qitiladigan fanlar soatidan ya'ni “Informatika va axborot texnologiyalari” ”, “Jismoniy tarbiya” fanlaridan **2 soatdan** olinib, “Chet tili” faniga **4 soat** qo'shib berildi.

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining
2026-yil “25”-maydagi
183-son buyrug‘iga
3-ILOVA

**Ta’lim o‘zbek tilida olib boriladigan umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida xorijiy tillar
yo‘nalishi bo‘yicha tanlov fanlari joriy etiladigan sinflarning 2026-2027-o‘quv yiliga
mo‘ljallangan o‘quv rejasi**

T/r	Fan yo‘nalishlari va nomlari	Sinflar kesimida		Haftalik umumiy soat
		10	11	
I.	Filologiya fanlari	8	8	16
1	Ona tili	2	2	4
2	Adabiyot	2	2	4
3	Rus tili	2	2	4
4	Chet tili	2	2	4
II.	Ijtimoiy fanlar	4	4	8
5	O‘zbekiston tarixi	1	1	2
6	Jahon tarixi	1	1	2
7	Davlat va huquq asoslari	1	1	2
8	Tarbiya	1	1	2
III.	Aniq fanlar	5	5	10
9	Algebra	3	3	6
10	Geometriya	2	2	4
IV.	Tabiiy va iqtisodiy fanlar	8	8	16
11	Fizika	2	2	4
12	Astronomiya		1	1
13	Kimyo	2	2	4
14	Biologiya	2	2	4
15	Geografiya	2		2
16	Tadbirkorlik asoslari		1	1
V.	Amaliy fanlar	2	2	4
17	Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik	2	2	4
Jami soat		27	27	54
Tanlov fanlar				
1	Ingliz tili	4	4	8
2	Koreys tili	4	4	8
3	Nemis tili	4	4	8
4	Fransuz tili	4	4	8
5	Xitoy tili	4	4	8
6	Yapon tili	4	4	8
Jami soat		4	4	8
UMUMIY SOAT		31	31	62

**Ta'lim o'zbek tilida olib boriladigan umumiy o'rta ta'lim muassasalarida xorijiy tillar
yo'nalishi bo'yicha tanlov fanlari joriy etiladigan sinflarning 2026-2027-o'quv yiliga
mo'ljallangan o'quv rejasiga tushuntirish xati**

1. Xorijiy tillar yo'nalishi bo'yicha tanlov fanlari 10-11-sinflarga mo'ljallangan bo'lib, ushbu o'quv reja 2 qism (majburiy fanlar va tanlov fanlari)dan iborat.

2. 10-11-sinflarda tanlov fanlari ingliz, koreys, nemis, fransuz, xitoy va yapon tillari hisoblanadi va ikkinchi xorijiy tili sifatida faqat bitta til tanlanadi hamda haftasiga 4 soat o'qitiladi.

3. Tanlov fanlari uchun ajratilgan haftalik o'quv soatlar quyidagi fanlar soatidan olib berildi:

10-sinfdagi ikki guruhga bo'linib o'qitiladigan tanlov fanlari uchun 10-sinf ikki guruhga bo'lib o'qitiladigan fanlar soatidan ya'ni, "Informatika va axborot texnologiyalari" hamda "Jismoniy tarbiya" fanlaridan **2 soatdan** olinib, tanlangan ikkinchi xorijiy til sifatida o'qitiladigan fanga jami **4 soat** berildi.

